

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“AMALIY SAN‘AT (TURLARI BO‘YICHA)”
YO‘NALISHI**

**“AMALIY SAN‘ATDA KOMPOZITSION YECHIM
MASALALARI”
MODULINING**

**O‘QUV USLUBIY
MAJMUASI**



Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Z.Dosmetova - dotsent.**

Taqrizchilar: **K.Gulyamov – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.**
B.Jalolov - O‘zbekiston Xalq rassomi, professor.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	15
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	15
V. KEYSLAR BANKI	28
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI	2
VII. GLOSSARIY	4
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	10

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi

bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, Amaliy bezak san'ati bo'yicha ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini oshirishdan iborat..

Modulning vazifalari:

- “Amaliy san'at (turlari bo'yicha)” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;
- “Amaliy san’at (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Amaliy san’atda kompozitsion yechim masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- amaliy san’at, uning turlari va yo‘nalishlarini;
 - amaliy san’atning jamiyatda tutgan o‘rnini;
 - amaliy san’atda kompozitsiya turlari va tuzish qonuniyatlarini;
 - amaliy san’atda stilizatsiya qonuniyatlarini;
 - amaliy san’atda badiiy bezash texnologiyalarini;
 - amaliy bezak san’atida usta-shogird an’alarini;
 - milliy va xorijiy ijodkorlarning ashyoda ishlash texnologiyalarini;
 - amaliy san’atda ranglash va pardozlash texnologiyalarini;
 - amaliy san’at asarlaridagi zamonaviy ashyolarni qo‘llash usullarini;
 - amaliy bezak san’ati maktablari, ularning hususiyatlari va namoyandalarini;
 - zamonaviy nutq madaniyati meyorlari, nazariy va amaliy uslublarini;
 - san’at va uning mohiyati, asosiy turlarini;
 - amaliy san’atning shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini
- bilishi;**
- naqsh kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish;
 - amaliy san’atda ko‘nikma, mahorat va kuzatuvchanlik tuyg‘ularini rivojlantirish;
 - amaliy san’at kompozitsiyasida shakl va hajm hosil qilish;
 - naqsh chizish mahoratini oshirishda nusxa ko‘chirish;
 - chizmatasvirning turlarini qo‘llash;
 - amaliy san’atda jahon an’alari va maktablari usullaridan foydalanish;
 - amaliy san’atda akademik maktab uslublaridan samarali foydalanish;
 - amaliy san’at kompozitsiyasi qoida va qonunlarini tahlil qilish
- ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;**
- amaliy san’atda kompozitsiya tuzilish qoidalaridan samarali foydalanish;
 - amaliy san’atda ashyolar xususiyati, turli vositalaridan foydalanish;

- amaliy san'atda turli badiiy bezak texnologiyalarini qo'llash;
- amaliy san'atdagi mahalliy va horijiy ilg'or tajribalardan unumli foydalanish;
- mashhur xalq amaliy bezak san'ati ustalari uslublarini o'rganish;
- go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgulilik kabi estetik xususiyatlarning san'atda namoyon bo'lishini baholay olish;
- amaliy bezak san'ati asarlarini tahlil etish;
- amaliy san'atda kompozitsiyaning alohida xususiyatlari va farqini tahlil qilish;
- amaliy bezak san'ati bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish;
- amaliy bezak san'atida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish;
- Amaliy bezak san'ati asarlarini badiiy idrok etish;
- amaliy bezak san'ati turlaridan foydalanish bo'yicha **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Amaliy san'atda kompozitsion yechim masalalari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta'limning muhim ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Amaliy san'atda kompozitsion yechim masalalari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta'lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta'limning ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot

1.	Badiiy naqqoshlik o'zbek xalq amaliy bezak san'atida tutgan o'rni haqida ma'lumot.	2	2	
2.	Badiiy naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar haqida ma'lumot.	4	2	2
3.	Rangshunoslik va bo'yoqlardan foydalanish texnologiyasi. Naqqoshlikda ranglash va pardoqlash usullari haqida ma'lumot.	2		2
4.	Ma'muriy va maishiy binolarni o'zbek milliy uslubida badiiy bezash. Toshkent, Xiva, Buxoro, Farg'ona va Samarqand naqqoshlik maktabi namoyandalari ishlaridan nusxa ko'chirish haqida ma'lumot.	4		4
5.	O'zbek xalq amaliy bezak san'atini o'rgatishda ustozshogirdan'analari haqida ma'lumot.	2		2
Jami:		14	4	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Badiiy naqqoshlik o'zbek xalq amaliy bezak san'atida tutgan o'rni haqida ma'lumot. (2 soat)

Badiiy naqqoshlik fani, maqsad va vazifalari. Badiiy naqqoshlik fanining maqsad va vazifalari. Kompozitsiyaning o'rni va ahamiyati. Amaliy san'at turlari, naqqoshlikning tutgan o'rni. Ramziylik va uni badiiy naqqoshlikda qo'llanilishi. Naqsh turlari va uning o'ziga xosligi. Naqsh kompozitsiyasi haqida tushuncha. Uning maqsad va vazifalari. Naqsh kompozitsiyalari tuzish usullari, bosqichlari va qoidalari. Kompozitsiya asoslari va uning turlari. Naqshlarda simmetriya va asimmetriya, rapport, ritm, siluet, nisbat. O'simliksimon, geometrik naqshlar. Stilizatsiya va uning o'ziga xos tomonlari.

2-mavzu. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar haqida ma'lumot. (2 soat)

Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar, ustaxonani jihozlash, ustaxonalarda texnika xafsizligi va yong'indan saqlanish qoidalari haqida qisqacha ma'lumot.. Me'morlikda — kompozitsiya (mujassamot) bino (inshoot va ularning majmualari)ning tuzilishi, vazifasi va g'oyaviy badiiy jihatlari birligi va shaharsozlikdagi o'rnini ta'minlashdan iborat; kompozitsiya butun bir shahar yoki me'moriy ansambl, alohida bino yoki inshootning tashqi qiyofasi bilan ichki xonalari, tuzilishi bilan bezaklari, rangi, loyihasi va qurilishini aniqlaydi, atrof muhit bilan

uyg'unlashishi me'moriy kompozitsiyaga kiradi. Bu esa me'mordan katta mahorat talab etadi. Adabiyotlarda kompozitsiya – asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, o'zaro bog'liqligi, voqea, harakter-obrazlar, lirik chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi ma'lum maqsadga boysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj, epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarda hech qanday yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham bo'lmasligi kerak. kompozitsiyaning o'ziga xosligi syujet unsurlarining qanday tartib bilan joylashtirilishiga, syujetdan tashqari unsurlar (lirik, falsafiy-publitsistik chekinishlar, qo'shimcha epizodlar) ning boryo'qligiga, peyzaj, portret, psixologik tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning meyori va tartibiga bog'liq.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar haqida ma'lumot.

(2 soat)

Naqqoshlikda ko'plab material va asboblari ishlatiladi. Naqsh chizish uchun oq qog'oz, yumshoq qora qalam, chizg'ich va o'chirg'ich, bo'yoq turlaridan esa guash, akvarel, moy bo'yoqlar, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar zarur bo'ladi. Turli nomerlardagi mo'yqalamlar, pargor, shaffof qog'ozi, kumush va tilla hal kukuni, xoka, nina, duradgorlik yelimi, bo'r, alif, lak va hokazolar ishlatiladi. Ulardan ish jarayonida qanday foydalanish tartibi bilan tanishamiz. Naqshlarni bo'yash va ulardagi elementlarga pardozi berishda bo'rsiq, suvsar va olmaxon kabi hayvonlarning mayin yungidan tayyorlangan turli kattalikdagi mo'yqalamlar ishlatiladi. Mayda qil-qalamlarni uchi ingichkaligi sababli naqshdagi nozik joylarni ishlashda qulaylik tug'diradi. Naqqosh ustalar zarurat tug'lsa yirikroq mo'yqalamlarni iplar bilan bo'lib bog'lagan holda kichiklashtirib ishlatadilar

2-mavzu. Rangshunoslik va bo'yoqlardan foydalanish texnologiyasi.

Naqqoshlikda ranglash va pardozi usullari haqida ma'lumot.

(2 soat)

Rangshunoslik tarixi, ranglarning inson ongiga ta'siri. Ranglar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Rang turlari. Naqqoshlikda ranglarning qo'llanilishi. Bo'yoqlar tayyorlash texnologiyasi. Ranglar garmoniyasi. Rang kontrasti. Rang koloriti. Ranglash va pardozi texnologiyasi. Pardozi turlari: siyoh qalam, targ'il, taroq, obi tortish haqida ma'lumot berish. Iliq va sovuq ranglar. Ahromatik va xromatik rang.

Ranglarda to‘yinganlik. Akvarel, guash tempera va moy bo‘yoqlaridan foydalanish yo‘llari. Bo‘yoqlarning turli materiallarda qo‘llanilishi.

3-mavzu. Ma`muriy va maishiy binolarni o‘zbek milliy uslubida badiiy bezash. Toshkent, Xiva, Buxoro, Farg‘ona va Samarqand naqqoshlik maktabi namoyandalari ishlaridan nusxa ko‘chirish haqida ma'lumot..

(4 soat)

Interer va ekstererni badiiy liyihalash. Ma`muriy va maishiy binolarni o‘zbek milliy uslubida naqshlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Toshkent, Xiva, Buxoro, Farg‘ona va Samarqand naqqoshlik maktabi namoyandalari ishlaridan nusxa ko‘chirish haqida ma'lumot.

4-mavzu. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘atini o‘rgatishda ustoz-shogird an‘analari.

(2 soat)

Xalq amaliy bezak san‘ati an‘analari va xalq ustalarining madaniy merosi. Bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatishda ustoz-shogird an‘analarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ustoz-shogird an‘analari talabalarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishning asosi omili. «Ustoz-shogird» masalasi – buyuk allomalarimizning kasb-hunarga oid qarashlarida.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, badiiy estetik didni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan kompozitsiyaning badiiy yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (kompozitsiya yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“SWOT-taхлил” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)

• кучли томонлари

W – (weakness)

• заиф, кучсиз томонлари

O – (opportunity)

• имкониятлари

T – (threat)

• тўсиқлар


Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson
W	Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir
O	Rassomlar chiziqdar, shakllar, ranglar, tasviriy san‘at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san‘at vositalardan, chiziqdar, shakllar, tasviriy san‘at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
T	To‘siqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo‘lmasa chiziqdar, shakllar, tasviriy san‘at

		vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.
--	--	---

“Baliq skeleti”

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 4



«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («catse» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qayerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash

4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
--	--

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo'yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo'yicha o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar professor - o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Badiiy naqqoshlik o'zbek xalq amaliy bezak san'atida tutgan o'rni haqida ma'lumot.

(2 soat)

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, tasviriy va amaliy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o'rta ta'limning yana o'n bir yillik bo'lishi va unda kasbga yo'naltirish maqsadida o'quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek akademik litsey, kasb–hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining Konstitutsiyamizning 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzalarida «...farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi–yangi ta'lim–tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy–joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga...» 1 ko'tarish zarurligini aytib o'tadilar.

Kadrlar tayyorlash mazmuni va tuzilmasini yangilash, uni maorif, fan, texnika, texnologiya, iqtisod, madaniyat sohaslarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar asosida qayta ko'rib chiqish, ta'lim tizimini isloh qilish, uning yagona o'quv–ilmiy ishlab chiqarish majmui tarzida muttasil rivojlanib borishini ta'minlash, davlat ta'lim standartlarini yaratish va amalga kiritishning ilmiy asoslarini, ishlab chiqish, ta'lim tizimi, ilm–fan, ishlab chiqarishga turli darajadagi kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish, milliy uyg'onish mafkurasi asosida o'quvchi–yoshlar hamda mutaxassislarni tarbiyalashning surunkali dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi o'quv–tarbiya jarayonlarini ilmiy–uslubiy jihatdan ta'minlash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash jarayonini o'quv–dasturiy hujjatnomalar, didaktik va uslubiy jihatdan ta'minlashni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini fundamental hamda amaliy ilmiy–tadqiqot ishlari asosida rejalashtirish va ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quv jarayonining axborot bilan ta'minlanishini yuksaltirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarning shaxsiy xususiyat va qobiliyatlarini, shuningdek, yetuk mutaxassisning shakllanishi, o'qishi, tarbiyasi va mehnatini baholash muammolari bo'yicha psixologik–pedagogik tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoni sifatini xolis baholash tizimini yaratish va amaliyotda qo'llash hamda shunga o'xshash boshqa yechimini kutib turgan muammolarni bartaraf etish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini

davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv–laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv–metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy–texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora–tadbirlarni ko'rish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart–sharoitlarni tubdan yaxshilash bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish borasida izlanishlar olib borilmoqda va mavjudlari darta'raf qilinmoqda.

Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o'rni Amaliy san'at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san'atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq amaliy san'atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, me'morlik, raqs va musiqa bilan hamoqangdir. Bezak san'atining o'ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy taxnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o'ymakorligi — monumental, dastgoqli, predmetli–miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hokazolardir. Shakllari bir–biriga o'xshamagan bu 13 asarlarni o'zaro biriktirib turgan jiqat ularning asosiy vazifasi — insonni qurshab turgan muhitni estetik bezashdan iboratligidadir. Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turlari rang–barang bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi amaliy–foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihati bilan o'zaro bog'lanadi. Mana shu ma'noda dekorativ–amaliy san'at deyiladi. Biroq bezak san'atiga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jiqatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo'shiladi. Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o'ymakorlik buyumlari va boshqalar. Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli o'laroq kundalik konkret muhitda, o'zlarining xususiyatlariga ko'ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma'no kasb etadi. Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafasat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb–ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi. Muhimi shundaki, bu zeb–ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib, uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma'naviy ehtiyojlari

vujudga keltirgan talablarga nechogʻliq javob berishiga qarab baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham koʻrsatadi. Dekorativ sanʼat mana shu vazifasini sanʼatning boshqa turlari — meʼmorlik, rassomlik, haykaltaroshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmatini yanada ortadi. Bezak sanʼati asarlari vositalarida maʼlum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda oʻzgartirish olish mumkinligi ularning oʻziga xos xususiyatidir. Dekorativ sanʼatning shu xususiyatiga binolar, koʻchalarning bayramona bezatilishi misol boʻladi. Bu bezaklar oʻsha joylarning odatdagi qiyofasini maʼlum vaqtgacha oʻzgartirib turadi. Bezak sanʼatining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik sanʼat asarlari ham maʼlum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar. Har bir tarixiy davr alohida gʻoyaviy va axloqiy tasavvurlarni olgʻa surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalash ekan, takrorlanmas dekorativ 14 sanʼatni vujudga keltirgan. Bezak sanʼat asarlarida inson, jamiyat va davrning xarakterli hissiyotlari toʻgʻrisida mavjud gʻoyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash sanʼatning rostgoʻyligi yoki taʼsirchanligining asosiy shartidir. Mana shu tamoyilga amal qilinmasa, badiiy maqsad hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa boʻlmasligi, formalizm vujudga keladi. Bezak sanʼatning taʼsirli chiqishi uchun tasvirdagi realizm birdan–bir shart emas. Bezak sanʼat asarlariga qoʻyiladigan talablar talaygina. Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, koʻp hollarda esa usullarning oʻziga xos jihatlari (oʻymakorlik, toʻqimachilik buyumlari va boshqalar), oʻziga xos tomonlari yaqqol ifodalanishi talab etiladi. Bezak sanʼatida umuman materiallar, ulardagi xususiy jiloning goʻzallik sifatleri ayniqsa muhim, ayrim hollarda yetakchi oʻrin tutadi. Bu holat bezak asarlar shakllarining oʻziga xos jihati boʻlib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni koʻpincha soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Biroq bu materialning koʻrki bezak sanʼat asarlari mazmunidagi kamchilikni toʻldirish, uni «boʻyab koʻrsatish» kerak, degani emas. Ijodiy vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiyasida formalizm, mazmunan qashshoqlikka yoʻl qoʻyiladi. Bezak sanʼatida qoʻllanadigan materiallarning estetik jihatdan eng kerakli sifatleri — yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishiqligi sanaladi. Bular yaratilayotgan shakllarning aniqlik darajasi, umumiy hajmning mutanosibligi va boshqalarda koʻrinadi. Materiallarning mana shu sifatlerini nazarda tutib toʻgʻri tanlanishi asar shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan toʻgʻri foydalanish mazkur asar beradigan taassurotlarning (masalan, bayram, sport oʻyinlari, tantanalar va sh.k. ruhini) yorqinligini taʼminlaydi. Intererni badiiy bezashda dekorativ–amaliy sanʼatning yogʻoch va ganch oʻymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi. Badiiy

bezash ishlarida amaliy bezak san'atining ana shu turlarini qo'llashdan maqsad ta'lim va tarbiya maskani bo'lmish o'quv yurti intererining o'ziga xos xususiyatlarini to'laroq yoritishdan, yoshlarda san'atga 15 1–rasm. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi. qiziqish uyg'otishdan va amaliy bezak san'at sirlarinidan voqif bo'lishlari va bu san'atga yaqinroq bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir. Afsuski, ba'zi o'quv yurtlarining intererini badiiy bezashda g'oyat jiddiy nuqsonlar va kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Amaliy bezak san'atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san'atning boshqa turlariga bevosita bog'lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e'lonlar, portretlar intererining ko'rinishini buzib turganini kuzatish mumkin

2-mavzu. Badiiy naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar haqida ma'lumot.

(2 soat)

Bezakli san'atning keng tarqalgan shakli bo'lmish naqqoshlik bashariyat madaniyatimizning hamma bosqichlarida unga hamroh bo'lib kelgan. Uning eng oddiy prinsplari – uyg'unlik, bir-biriga mutanosiblik va usullarning qayta takrorlanishidir. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqqoshlik an'analari san'atining ana shu turini o'rgatish metodlari sifatida ham avlodan-avlodga o'tib kelgan. Bunda xalq ustalarimizning xizmati beqiyosdir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Mazkur leksiya kursida zamonaviy kompyuter texnologiyasidan foydalanib, sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ularni ranglash usullari yoritib berilgan.

Naqqoshlik fanidan leksiya kursining asosiy maqsadi, Oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan o'quv dasturlaridan joy olgan mavzularni yoritib berish, vazifalarni bajarish metodikasini ishlab chiqish, o'quvchilarni ustoz va shogird milliy an'analarni davom ettirishga, naqsh kompozitsiyalarining turlarini, ularni chizish usullari va mos ravishda qo'llash qoidalarini o'rgatishga qaratilgan.

«Naqqoshlik» fanining asosiy maqsad vazifalari quyidagilar kiradi:

- naqqoshlik fanini tashkil qilish, uning mazmuni, naqqoshlikda turli kompozitsiyalar tuzish usullari, ularga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish;
- naqqoshlik fanida ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar, ularni ishga tayyorlash;
- talabalarga oddiydan murakkabga qarab turli naqsh kompozitsiyalarini mukammal tuzishni o'rgatish;

- talabalarga naqqoshlik, ganch shymakorligi, miniatyura, ashyoshunoslik va boshqa fanlardan olgan bilim malakalarini mustahkamlash, turli shakldagi buyumlarga naqsh kompozitsiyasi tuzishni o‘rgatish, shu bilan birga ranglarni mos keladigan qilib tanlash, turli materiallarga ishlov berishni e’tibor qaratadi;
- hajmli buyumlarni naqshlash usullarini o‘rgatish;
- interyer va eksteryer bezagi uchun turli naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o‘rgatish;
- naqqoshlik darslari asosida Sharq amaliy san’atining go‘zalligi, falsafiy, ruhiy va tarbiyaviy qirralari bilan tanishtirish.

«Naqqoshlik» fani bo‘yicha talabalar bilimlari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar:

- talabani fanning maqsad va vazifalarini bilishi;
- o‘quv va tarbiya jarayonida naqqoshlik fanining roli;
- kompozitsiya, rang, materiallar, ularni ishga tayyorlashni bilishi;
- ish qurollari, moslamalar, ularni ishga tayyorlashni bilishi;
- oddiy naqsh elementlarini yoddan bilishi va ular yordamida turli naqsh kompozitsiyalari tuza olishi;
- girih va gulli girih naqsh kompozitsiyalarini tuza olishi;
- turli hajmli buyumlariga naqsh kompozitsiyasi chiza bilishi;
- xalq ustalarimiz ijodidan nusxa ko‘chira olish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- interyer va eksteryerni bezash uchun naqsh kompozitsiyalari chiza olish va yangi texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

«Naqqoshlik» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Bu fan V 5140700, V 5140900 yo‘nalishlariga kirgan «Yog‘och va ganch o‘ymakorligi», «Kulolchilik», «Miniatura», «Xattotlik», «Qalamtasvir», «Rangtasvir», «Chizmachilik», «Badiiy bezash san’ati» va boshqa fanlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Fanni o‘qitishdagi yangi texnologiyalar.

Fanga oid turli adabiyotlar, ko‘rgazmali qurollar, zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish. Yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash.

Naqqoshlik darslari yanada samarali o‘tashi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- darslarda yangi pedagogik mexnologiyalardan o‘rinli foydalanish;
- ta’limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qo‘llash;
- darslarda xalq og‘zaki ijodi namunalari, usta shogird an’analaridan keng foydalanish;
- talabalar ishlaridan ko‘rgazmalar qilish;
- ko‘rgazmali qurollardan foydalanish;

- talabalarni o'z kasbiga qiziqtirish yo'llaridan unumli foydalanish;
- talabalarning individual xususiyatlarini, universitetning moddiy bazasini hisobga olish;
- fanga oid ishlatiladigan atamalarning lug'oviy ma'nosini atroflicha o'rganish va boshqalar;

Naqqoshlik kursi oldida turgan ta'lim-tarbiyaviy masalalarini ijodiy hal qilishda auditoriyadan tashqari ishlar muhim rol o'ynaydi. Bular:

- tasviriy san'at, xalq amaliy san'ati, tarix muzeylariga, naqqosh ustalar bezagan inshootlarga, me'morchilik obidalariga, kollejlarga vaqo'shimcha ta'lim muassasalariga «Usto» va «Musavvir» ustaxonalariga sayohatlar;
- naqqosh ustalar, olimlar bilan uchrashuvlar;
- talabalar ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish;
- mashhur naqqoshlarning hayoti va ijodiga bag'ishlab ijodiy jurnallar ishlash;
- amaliy san'at ustalarining hayoti va ijodiga bag'ishlangan videofilmlar namoyish etish;
- rangli naqsh kompozitsiyalari va turli buyumlar eskizini kompyuterda bajarish;
- ustalar ijodi namunalaridan nusxalar olish;

Auditoriyadan tashqari ishlar ham maxsus reja asosida olib borilishi lozim. Kompozitsiya kursini olib boruvchi o'qituvchi talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturga ayrim o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Naqqoshlik kursida plakatlardan, tarqatma materiallardan, kompyuterdan, har xil grafiklardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanadi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Badiiy naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom-ashyolar haqida ma'lumot.

(2 soat)

Naqqoshlikda ko'plab material va asboblari ishlatiladi. Naqsh chizish uchun oq qog'oz, yumshoq qora qalam, chizg'ich va o'chirg'ich. Bo'yoq turlaridan guash, akvarel, moy bo'yoqlari, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar. Turli nomerlardagi mo'yqalamlar, pargor, shaffof qog'ozi, kumush va tilla hal kukuni, xoka, nina, duradgorlik yelimi, bo'r, alif, lak va hokazolar kerak bo'ladi. Ularning ishlatilishini va ahamiyatlari bilan tanishaylik. Naqshlarni bo'yash va ularga pardoz berishda bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabi hayvonlarning yungidan tayyorlangan mayin

mo`yqalamlar ishlatiladi. Mayda qil-qalamlarni uchi ingichkaligi sababli naqshdagi nozik joylarni ishlashda qulaylik tug`diradi. Naqqosh ustalar zarurat tug`ilsa yirikroq mo`yqalamlarni iplar bilan bo`lib bog`lagan holda kichiklashtirib ishlatadilar. Mo`yqalam turlari: Mo`yqalam – naqshlarning zaminlarini, shakl yuzalarini, gul, novda elementlarini bo`yashda ishlatiladi (9,10-nomerli). Obiqalam – naqqoshlikda obi tortish naqsh yo`llariga suv tortish degan ma'noni anglatadi. Obi mo`yqalam yakka bandli tanob chiziqlarini oq bo`yoq bilan chizishda va mayda gul shakllarini ranglashda ishlatiladi. Pardozqalam – gul qalam, targ`il qalam, mayda mo`yqalam bo`lib, gul novda, barg va boshqa shakllarni nozik chiziqlar bilan chizilib, targ`il berishda ishlatiladi. Chakma qalam – naqshlardagi chegara mazmunidagi bo`yalgan qora chiziqlar ustiga qo`yiluvchi to`rtko`z chakma tomchilarini berishda ishlatiladi. Chakma qalamni cho`pdan, uchi gugurt cho`pidan ingichkaroq yo`nib yasaladi. To`rtko`z chakma tomchilarini uchi to`mtroqroq mayda mo`yqalamlar yordamida qo`ysa ham bo`ladi. Mo`yqalamlarning yaxshi saqlanishi uchun ularni ishlatib bo`lingach yaxshilab yuvilib qalamdonga yoki maxsus tirgakka qo`yiladi. Belcha (shpatel) – buyum yoki naqsh chiziluvchi biron-bir satq yuzasini maxsus qorishma surtib silliqlashda ishlatiladi. Belchalar katta o`rtacha va kichik turlardan iborat bo`ladi. Bo`yoq turlari:

Naqshlarni bo`yashda moyli tempera va asosan suvli bo`yoqlardan keng foydalaniladi. Suvli bo`yoqlarga guash, akvarel, emulsiya, kukun holdagi quruq bo`yoqlar kiradi. Naqqoshlikda eng ko`p ishlatiladigan oq rang tusi bo`lib, u boshqa bo`yoq turlari bilan aralashtirilib ishlatiladi. Qog`ozlar – naqqoshlikda oq chizma qog`ozi kalka va millimetrovka qog`ozlaridan foydalaniladi. Naqsh chizishning boshlanqich davrlarida katak daftari va chizmachilik albomlaridan foydalaniladi



2-mavzu. Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish texnologiyasi. Naqqoshlikda ranglash va pardozlash usullari haqida ma'lumot.

(2 soat)

Naqshlarni bo_yashda moyli tempera va asosan suvli bo_yoqlardan keng foydalaniladi. Suvli bo_yoqlarga guash, akvarel, emulsiya, kukun holdagi quruq bo_yoqlar kiradi. Naqqoshlikda eng ko_p ishlatiladigan oq rang tusi bo_lib, u boshqa bo_yoq turlari bilan aralashtirilib ishlatiladi.

Tempera – ushbu atama ital‘yan tilidan olingan bo_lib bo_yoq qorishtirish ma‘nosini anglatadi, tempera suv bilan eritilib ishlatiladi. U ko_proq binolarning bezagida hamda rangtasvir ishlarida keng qo_llaniladi. Tarkibida maxsus moddalar bo_lganligi sababli quyosh va yorug_lik ta‘sirida o_z rangini o_zgartirmaydi, uzoq vaqt o_z tusini saqlab qoladi

Tempera ko_p asrlardan beri dastgohli rangtasvir uchun asosiy material bo_lib xizmat qilib kelmoqda. Yevropa davlatlarida moybo_yoqli rangtasvir o_z mavqeyiga ega bo_lgunga qadar tempera dastgohli rangtasvir uchun yagona material bo_lib kelgan. Tempera so_zi lotincha bo_lib —temperarell- aralashtirish ma‘nosini anglatadi.

Emulsiya tashkil qiluvchi moddalarga qarab tempera quyidagi turlarga bo_linadi: tuxumli, kazenli, moyli, polivinisetatli va boshqalar. Temperaning alohida turlari bir –biridan nafaqat o_z tarkibidagi bog_lovchisi – emulsiyasi bilan farqlanadi, balki rangtasvir material sifatida o_ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Tuxumli tempera- uyg_onish davrida keng tarqalgan edi. Temperaning bunday turi moybo_yoqli rangtasvir takomillashgandan keyin ham uzoq muddat qo_llanilgan.



Temperaning bu turi Rossiyaga Vizantiya orqali kirib kelgan. Tuxumli temperaning bir necha turi mavjud: yaxlit tuxumli, oqsilli, eng ko_p tarqalgani, esa tuxum moyi, litsetin, mineral moddalar va boshqalardan iborat. O_ziga xos puxta chidamliligi bilan moy, lok va suv bilan qorishmalarida sifatli emulsiya hosil qiladi. Tuxum sarig_i tarkibidagi oliinli, palmetinli, steriatinli kislotalar bo_yoq tayyorlashda bog_lovchi sifatida muhim rol o_ynaydi. Guash - Guash bo_yog_i akvarel bo_yog_ining tamoman aksi bo_lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug_likni yutganligi sababli uning tagidagi qog_oz ko_rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo_yoq kukuni va uni bog_lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog_och yelimi bilan mo_tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo_ladi. Guash bo_yog_ining yana bir muhim jihati uning oq bo_yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi.

Bo_yoqni ishlatish uchun mo_yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo_lmasligi, bir oz dag_alroq bo_lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog_oz yoki karton ham silliq bo_lmagan yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo_lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo_yog_ini yaxshi surtish mumkin bo_ladi.

Guash ko_pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni va qisman rangtasvir asarlarni bajarishda ham foydalaniladigan, suv qo_shib ishlatiladigan, tezda quriydigan bo_yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo_yoq surtilgan paytda to_q, qurigandan keyin esa ochlashib ko_rinishidir. Shu jihatini hisobga olmasa, ranglar orasidagi muvofqlikni saqlab turish ancha qiyin bo_ladi.



Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarini ko_payishiga va xilma-xillashuviga olib keladi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud. Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon akvarellar bog_lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni bo_yoq rangini o_zgartirmaydigan, qog_ozga surtilganda yuzaga tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Bog_lovchi moddalar asosan, gumiarabik, olcha, olxo_ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Akvarel tayyorlashda qo_llanilgan bo_yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo_lishi mumkin.

Ayrimlari o_simliklar yoki hayvonda uchraydigan pigmentlardan (masalan, jigarrang, karmili bo_yoqlardan) tayyorlanadi. Bo_yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularni tiniqligiga, bir-birlari bilan yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, quydagi bo_yoq kukunlaridan foydalanish tavsiya etiladi: Sariq kukunlar: tabiiy jigarrang, sariq mars, zarg_aldoq mars va hokazo. Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi. Binafsha: binafsha tusdagi kukun. Yashil kukunlar: zumrat rang, yashil rangli loklar. Zangori: zangori loklar.

3-mavzu. Ma`muriy va maishiy binolarni o'zbek milliy uslubida badiiy bezash. Toshkent, Xiva, Buxoro, Farg'ona va Samarqand naqqoshlik maktabi namoyandalari ishlaridan nusxa ko'chirish haqida ma'lumot.

(4 soat)

Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun- qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'sishiga sabab bo'ldi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqqoshlik san'atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ-amaliy san'atning taraqqiy etishga ta'sir ko'rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka- quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq- harakat, suv ramzi va hokazo.

Naqqoshlik san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning Qoyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi.

Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san'at yetakchi o'rinni egallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish alohida rivojlangan.

O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar ehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqyealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o'tmish san'ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston hududida arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqqoshlik san'atining rivojlanganligi ma'lum. Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalarida qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari buning yaqqol dalilidir.

Eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda O'rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oks boyligi) muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko'za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir.

Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnay (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Axmoniylar davlatini tor-mor etib, O'rta Osiyo yerlarining ko'chmanchi qabilalargina o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy- ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan.

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otabobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, hayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

Islom talablariga buysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada

naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atining bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, milliy an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'g'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o'yini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi "xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" tarkib topgandir.

Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador araqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islimi va garih naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Badiiy naqqoshlik san'ati hozirgi kunda keng tus olmoqda. Matbuot, radio, televideniye, kino orqali kishilar ana shu san'at namunalari va uning xalq ustalari bilan tanishmoqdalar. Bu san'atkorlar orasida O.Qosimjonov, Ye.Raufov, A.Boltayev, S.Norqo'ziyev, A.Azimov, A.Isayev, B.Abdullayev, T.To'xtaho'jayev, J.Xakimov, Z.Bositxonov, M.To'rayev, T.Ahmedov, K.Karimov, A.Ilhomov va boshqalar bor. Xalq ustalarimizning, ulardan ta'lim olgan shogirdlarning ishlarini Toshkentdagi amaliy san'at muzeyida, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda, shuningdek, turar-joy va jamoat binolarida, masalan, Toshkent Davlat sirki, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, Milliy akademik drama teatri, Temuriylar tarixi muzeyi, Oliy Majlis va Shahar Hokimiyati binolari, metro stansiyalari,

mehmonxonalar, kabi ma'muriy va maishiy inshootlarda ko'rish mumkin. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to'garaklar tarmog'ini iloji boricha kengaytirish vazifasi qo'yilmoqda. Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi.

Naqqoshlik maktablari. Xonliklar davrida xalq amaliy san'ati ustalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yig'ila boshladilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo'qon, Marg'ilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga, o'ziga xos kompozisiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o'ynaydi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o'xshasada, har bir naqqoshlik maktabi o'zining alohida kompozisiyasi, ish uslubi, rang koloriti bilan ajralib turadi.

Toshkent naqqoshlik maktabi. Toshkent naqshlari o'zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o'tishi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlanadi. Isli miy naqshlarda oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan murakkab girih naqshlari ham keng qo'llanilgan.

Naqqosh ustalardan Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Jalil Xakimov, Toir To'xtaxo'jayev, Zokir Bositxonov, Maxmud To'rayev, Anvar Ilhomov, Komil Karimov, va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabi asoschilaridirlar.

Yo. Raufov tojik naqqoshlik maktabining ananalarini saqlagan holda ajoyib kompozisiyalar yaratgan. Ijodkor o'zbek-tojik naqshlarining boy madaniy merosidan mohirona foydalanib, ko'pgina islamiy va geometrik naqsh kompozisiyalarini yaratdi. Uning naqshlari ranglarining yorqinligi hamda bir-biriga uyg'unligi bilan ajralib turadi. U o'z kompozisiyalarida yangi-yangi elementlarni kashf etgan. Yo. Raufov naqshlarni bo'rttirib, kundal texnikasidan ham foydalandi. T. To'xtaxo'jayev murakkab uslubdagi naqsh kompozisiyalarini tuza olgan. Ustaning oltinsimon-jigarrang koloritdagi naqshi Toshkent naqqoshlik maktabining rivojlanishida qo'yilgan yangi bir qadam bo'ldi.

O'zbek naqqoshlik maktabini rivojlantirishda samarali hissa qo'shgan Olimjon Qosimjonovning talantli shogirdi, naqqoshlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan, juda ko'p shogirdlarning ustози - O'zbekiston xalq rassomi Jalil Xakimovdir. Ota-bobolarimizni qadimdan yaratib kelgan naqshlarini qayta tiklashda ustaning xizmatlari kattadir. J. Xakimovning naqshlarini e'tibor berib kuzatsak, undagi naqshlar elementlarga boyligi, aniq, rovonligi, yorqin yashil

koloritda bo'lishi bilan ajralib turadi. U gulli girih kompozitsiyalarini juda ko'p ishlagan. J.Xakimov o'zbek milliy naqqoshlik san'ati an'alarini puxta egallagan, uni samarali davom ettirgan san'atkoridir. Usta naqshlagan xontaxta, kursi, quticha va boshqa buyumlar dunyoning ko'pgina davlatlarida yuqori baholangan. Uning ijodi Sharq an'analari ruhida rivojlandi, tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Xiva naqqoshlik maktabi. Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatilgan. Islimiy naqsh kompozitsiyasida novda, marg'ula, shukufta, barg, no'xat, gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar ishlatilib, orasi spiralsimon islamiy naqsh bilan boyitilgan. Xiva naqshlari umuman madoxilli naqshlar asosida tuziladi. Islimiy naqsh esa spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshlik maktabining yorqin namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

Buxoro va Samarqand naqqoshlik maktablari. Buxoro naqshi kompozitsiyalarining murakkabligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq va puxta o'lchamda ishlatilishi, o'simliksimon naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

4-mavzu. O'zbek xalq amaliy bezak san'atini o'rgatishda ustoz-shogird an'analari haqida ma'lumot.

(2 soat)

Naqqoshlik san'ati barcha amaliy san'at turlarining tarkibiy qismi o'larog, O'rta Osiyo xalqlari orasida o'zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma'nolariga boyligi bilan gadimdan keng rivojlanib kelmogda.

Ma'lumki vatanimizni ko'rkiga ko'rk go'shib turgan Samargand, Buxoro, Toshkent, Xorazm kabi shaharlardagi ko'hna obidalar ganchkorlik, yogoch o'ymakorligi, sangtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorlik namunalari bilan o'ziga xos ravishda bezatilgan. Ulardagi betakror nagsh bezaklarini kuzatar ekanmiz, ijodkor bo'yoglar orgali shakllarni ganchalar nafis ifodalay olganidan xayratga tushamiz. SHuningdek, tarixiy Baktriya, Sug'd, Xorazm, Shosh kabi hududlardan topilgan bezakli ashyolarning o'ta gadimiyligi ham, insoniyatning go'zallik olamiga ganchalar intig yashaganligidan dalolat beradi.

Tarixdan har bir davr naqqoshlik san'atining rivojiga o'zining salmogli hissasini go'shib, uning yanada rivojlanib, taraqqiy etishiga zamin yaratib kelgan.

Surxandaryodagi Fayoz - te'a (I-II asr). Dalvarzin-te'a (II-asr). Xorazmdagi tu'rogalga (III-asr) devorlari ham turli rasm va nagshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI

- VIII asrlarga oid Afrosiyob va Varaxsha saroylarining devoriy suvrat goldig'lari esa birmuncha yaxshi saglanib golgan. Ajdodlarimiz bu kabi devoriy rasmlarda: insoniylik, baxt ona tabiatga cheksiz munabbat, shodlik, mehr va yovuzlik kabi sifatlarni rang va chizig'lar yordamida unsuz tovushlar orgali ifodalashgan.

VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak - naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Maxobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o'rmini tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi nagsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o'zlashtirilib, bezakli (e'igrafika) uslub paydo bo'ldi.

IX asrlarda ganchkorlik, yogoch o'ymakorligi, naqqoshlik, gisht terish, kitob bezagi san'atlari yanada rivojlandi. Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Goshgariy va boshgalarning ilmiy, tibbiy, mahnaviy hamda guruhon oyatlari zarxal nagshlar bilan bezatildi. Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma'nolari kengroq ifodalana boshlandi.

Temur va Temuriylar davriga kelib esa ilmu-fan, madaniyat va san'at keskin rivojlandi. Ko''lab tarixiy inshootlar gurilib ular koshin'azlik, unvonli serhasham yozuvlar va turli o'yma nagshlar bilan bezatildi.

Nusxa ko'chirish (xattotlik) kitobat (minatyura) san'atlari yanada rivoj to'di. Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi ko'plab naqqosh - musavvirlar; Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va ko'plab buyuk zotlarning asarlarini ajoyib tasvir va nagshlar bilan bezaganlar.

XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi (XVI asr) Baland masjid (XVI asr) Xo'ja Zayniddin xonagosi (XVI asr) Samarganddagi Tillagori madrasasi (XVII asr) va Zarxal nagshlar (kundal texnikasi) bilan bezatildi. Bu usul "magzi soxta" deb ham yuritiladi.

Naqqoshlikda lojuvard, yashil, gizil, tilla hal bo'yog tuslarini o'zaro boglanishi asosidagi "turunj" namoyon, girix usullaridan tashkil to'gan nagsh namunalari ko''lab ishlangan.

Naqqoshlik san'atida o'ziga xos nagsh maktablari shakllana boshlandi. Ko''lab xalg ustalari yetishib chigib faoliyat ko'rsatdilar.

XX asr boshlarida naqqosh ustalar: Olimjon Gosimjonov, usta SHerali Xoji, Rauf Nazarov, ustazoda Yogubjon Raupov, Vakil va Sobir Isaevlar Toshkentdagi Romanovlar saroyini, hozirgi xalg amaliy san'ati muzeyi binosini (sobig polovtsev uyini) va boshga binolarni shargona nagsh namunalari bilan bezadilar. 1947 yilda gurib bitkazilgan O'zbekiston Davlat o'era va balet katta teatri binosining bezak ishlarida usta Vakil va Sobir Isaevlar, Yogubjon Rau'ov, Olimjon Gosimjonov, Jalil Hakimovlar samarali mehnat gildilar. Teatr binosini 1966 yilda gayta tahmirlash ishlarida ham mohir usta Jalil Hakimovning xizmatlari katta bo'ldi. Yangi nagsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh

ustalar chizib beradilar. Ular xalg amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi nagshlarning kom'ozitsion tuzilishini , chizish, o'yish, tikish usullari va pardozi berish goidalarini yaxshi bilganlar. Naqqosh ustalar bir vagtning o'zida bir necha hunar turlarini ham egallab borganlar. Masalan: Toshkentlik pargori usta Olimjon Gosimjonov, naqqosh Jalil Hakimovlar yogoch o'ymakorligini, Xivalik Abdulla Boltaev naqqoshlik, koshin'azlik, misgarlik kabi hunar turlarida erkin ijod gila olganlar.

Handasiy nagsh kompozitsiyalari, girihlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda girihkor, katta ustalar deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli assimetrik shakllarda go'llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

O'zbekistonda naqqoshlik san'atining o'ziga xos bir necha maktablari mavjud bo'lib, ular XX asrning o'rtalarida gayta shakllanib yanada rivojlandi. Toshkent naqqoshlik maktabi o'ziga xos uslubga ega. Bu uslubda ishlangan nagshlar rang tuslarining nozikligi, yashil havo rang hamda oltinsimon jigarrang koloritlarda ishlanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, nagsh elementlarining xilma-xilligi pardozi usullarining ko'prog targil tortish texnikasi bilan bajarilishi o'ziga xosdir. (8-rasm)

Toshkent naqqoshlik maktabining namoyondalari Sherali Hoji Hasanov, Vakil va Sobir Isaevlar , Olimjon Gosimjonov, Yogubjon Rau'ov, Jalil Hakimov, Toir To'xtaxo'jaev , Mahmud To'raev, Komil Karimov va Anvar Iloxomovlardir.

Fargona naqqoshlik maktabining uslubi tojik namunalariga o'xshab ketadi. Nagsh kompozitsiyalarida ortigcha shakl yasovchilarisiz, zamin bo'shliglari islimiy gul va novda shakllari bilan mohirona to'ldiriladi. Fargona nagshlariga to'qroq, garama-garshi (kontrast) ranglar jilvasi ulugvorlik bagishlaydi. Gul va barg elementlarining pardozlari ko''rog edirma uslubida bajariladi. Fargona naqqoshlik maktabi hagida ga' ketganda Go'gonlik naqqosh ustazodalar nomlarini faxr bilan tilga olish mumkin. Ular Norgo'zi Nurmatov , Saidmahmud Norgo'ziev, Saidahmad Mahmudovlardir. Mustagilligimizning ilk yillarida o'zining 80 yoshlik to'ylarini nishonlab, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonini olgan Saidahmad Mahmudovning ko''lab shogirtlari bor.

Xorazm naqqoshlik maktabining ham o'ziga xos uslubi mavjud. Xorazm nagshlari ko''rog novda ishtirokidagi aylana s'iralsimon murakkab ko'rinishdagi nagshlardan iborat. Xorazm nagshlarini turlanishida uch va to'rt xil rang tuslari ishtirok etib, nagsh zaminlari havorang-yashil novdalar og; rangda pardozi esa gora rangda bo'ladi.

Xorazm nagshlarida islimiy egiluvchan madohil shakllari ko''lab uchraydi. Xorazm naqqoshlik maktabi namoyondalari Abdulla Boltaev, Xo'janiyoz Saidniyozov, Eshmurodov Sofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Ro'zimat Mashari'ov va boshgalardir.

Buxoro naqqoshlik maktabining ish uslublari nagsh kompozitsiyalarining mukammal va jozibadorligi, girih o'simliksimon, aralash nagsh namunalarining yorgin ranglarda ishlanishi bilan xarakterlidir. Buxoro nagshlarida ko''rog namoyon nagsh

kompozitsiyalari shuningdek kosamon, kitoba mexrob shakli nagshlariga xos namunalar ko'plab ishlanadi.

Samargand naghlari Toshkent, Fargona nagshlariga o'xshab ketadi. Samargand nagshlarida zangori-yashil rang tulari ko'plab qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyalaridan o'simliksimon murakkab girih turlari alohida joziba kashf etadi. Samargand nagsh turlarida edirma-pardoz usullari keng go'llaniladi. Bu naqqoshlik maktabning nomoyondalariga: usta Raxmon, usta Jamoliddin, usta SHarif, usta Aminjon, usta Mahmud va boshgalar kiradi.

V. KEYSLAR BANKI

Keys.

Dizaynerlarni dizayn nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

Milliy natyurmortni tasviriy san‘at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasini qo‘llanilishini tushuntirish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Dizayn turlari va sohalarini rivojlantirish metodikasi dasturi:

1. Tinglovchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug‘liklar va ulardagi tushlarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

2. Dizaynerlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Mashg‘ulot paytida:

Tinglovchi va talabalarining asosiy va yuqori amaliy bilimlardan qoniqish hosil qilishlari uchun o‘quv ustaxonasi kerakli yorug‘lik va chizmatasvirda qo‘llaniladigan zarur jihozlar bilan ta‘minlanishi kerak.

Ishlatiladigan ashyolar;

har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar, ko‘mir, sous, sagina. planshet, qog‘oz, o‘chirgich.

chizmatasvir ishlash uchun dastgoh (molbert).

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVALINI - guruhlariga qo‘llash, o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlarini bo‘yicha taqqoslashni ta‘minlaydi. Tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVAL.

1-guruh

Interer, kompozitsiyasi mavzusida ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izohlang.

2-guruh

Interer kompozitsiyasi mavzusida ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarda tasvirlash.

TOIFALASH JADVALI

Perespektiva turlari.		
Chiziqli perespektiva	Fazoviy perespektiva	Perespektivada tasvirni o'zlashtirish:
Giometrik qurilish uslubida	Tasviriy san'at tur va janr, asarlarida kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo muxiti ta'sirida tus va ranglarni o'zlashtirishni o'rganadi.	Ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kartina tekisligi, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni

KONSEPTUAL JADVAL

Interer, kompozitsiyasi mavzusida ishlash	Intererda, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar	
	Pedagogik vazifa	Amalga oshiriladigan ishlar
Interer, kompozitsiyada to'g'ri ko'rish idrokini rivojlantirish	Intererda rang, shakllar va miqdor, o'lchamni bilish	Xonadagi ichki ko'rinishni to'g'ri topish, Interer, kompozitsiyasida ishlash noto'g'ri joylashgan buyumlarni aniqlash, xonadagi buyumlarni yetmagan elementlarini tasvirlash.
Ko'rish xotirasi hajmini kengaytirish va uni aniqlashtirish	Xonadagi buyumlarni shakllarni eslab qolish	Stolga 5-6 ta intererni tasviri asosida rasmlar qo'yiladi, buni talabalar eslab qolishlari kerak, so'ng rasmlardan biri olib

		qo'yiladi talabalar rasmlarni qayta ko'rib, qaysi rasm yo'qligini topishlari kerak.
Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish	O'ng, chap, yon, orqa, old, baland, past kabi fazoviy mo'ljal olish	Perespektivada chap tomonida qanday predmetlar borlig'ni ko'rsatishni taklif etish: xonani derazalari qaysi tomoningda turibdi, eshik, shkaf qaysi tomonida turibdi, stol va stullarni joylanishini tekshiring.
Ko'rish analizi va sintezini rivojlantirish	Tasvirlashda intererni elementlarini ko'rib analizi va sintezini rivojlantirish va tasvirlash	Ko'rsatilgan intererda peres pektivani chizilgan loyxada ko'rsating, - Xonani ichki jixozlanishini ko'rsating.

Tavsiya qilinayotgan tasvirlar o'zbek xalq amaliy bezak san'ati bilan mo'jaz rangtasvir – miniatyura san'atining uyg'unlashuviga oydinlik kiritadi

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim tegishli o'quv moduli bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi va uning natijasida tinglovchilar bitiruv ishi dirasida referat yoki kurs ishini tayyorlaydi.

Mustaqil ish talablari har bir tinglovchi o'zi tanlagan rassom ijodi yoki badiiy asar taqdimotini tayyorlaydi.

Mustaqil ish taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- Sarvaraq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- asosiy qism: nazariy tahlil;
- illyustratsiyalar ilovasi;
- xulosa;
- glossariy;
- adabiyotlar ro'yxati.

Keyslar banki;

Boshqa materiallar (fanni o'zlashtirishga yordam beruvchi qo'shimcha materiallar: elektron ta'lim resurslari, ma'ruza matni, glossariy, test, krossvord va boshq.)

Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o'quv-metodik resurslarini "Elektron potrfolio" tizimiga kiritib borishi lozim.

Mustaqil ish mavzulari

- Kompyuter grafikasi haqida ma'lumot.
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Kompyuter grafikasi va uning asosiy vazifalari.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Kompyuter grafikasining qo'llash imkoniyatlari.
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Kompyuter grafikasi kursiga qo'yiladigan asosiy talablar.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Kompyuter grafikasining texnik vositalari.
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Kompyuter grafikasida qo'llaniladigan grafik dasturlar haqida ma'lumot.
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Windows amaliyot tizimidagi grafik muharrir.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Corel Draw grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Adobe Photoshop grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Auto CAD grafik muharriri.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Grafik muharrirlarda chizma, rasmlarni tahrirlash va printer qurilmasi yordamida chop qilishni o'rganish.
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Kompyuter grafikasining turlari.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Kompyuter grafikasi qanday fan ?
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.
- Kompyuter grafikasidan foydalanish.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Grafik chiqarish qurilmalari.
- Badiiy vositalar tekst modellari va palitrage qo'shimcha effektlar, tasvirlarni yaratish va chiqarish haqida ma'lumot.
- Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
- Kompyuter grafikasining qanday turlari mavjud?
- Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Tasvirlar animatsiyasi haqida ma'lumot.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Taqdimotlar va uni yaratish usullari.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining rivojlanish bosqichlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Kompyuter grafikasining fanlar bilan aloqasi.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining hayotga tatbig'i.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Dizayn san'atida zamonaviy reklamaning o'rni.
Dizayn texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Belgi va ramziy belgilarning kelib chiqish tarixi, ularning turlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

VII. GLOSSARIY

Antropometriya (yunoncha so'z «antropos» - odam, «metron» - o'lchov ma'nosini bildiradi) – antropologiyaning bir bo'limi hisoblanib, odam tanasining tuzilishi, asosiy harakat va holatini, tavsif o'lchamlarini o'rganadi. Antropometriya turli jinsdagi, yoshdagi, etnik jihatdan mansubligi va geografik regioniga qarab odamlar uchun o'rta katta-kichik meyorlarini o'rnatadi. Antropometriya asoslari, mahsulot va binolarni proeksiyalashda, ularning odamlarga loyiq ta'minlash maqsadida va ohir-oqibat qulay ishlatilishida va qulaylik yaratishda keng foydalaniladi.

Badiiy konstruksiya – loyihalash faoliyatining alohida tarzdagi xilma-xil obektlari bo'lmish sanoat va maishiy yo'nalishdagi mahsulotlar, yirik seriyalarda sanoatlashgan uslubda ishlab chiqarilishi. Badiiy konstruksiya ob'ektlarining xarakterli xususiyati-ularning ishlanmasida injener-konstruktor va texnologlarning qatnashishlari zarurligi. Rassom-konstruktor mahsulot ishlanmasi ustida, texnikaviy estetikaning, nazariy va metodologik bilimlariga tayangan holda ish olib boradi.

Badiiy loyihalash – uni tarkibiy qismiga kiruvchi badiiy konstruksiyaga nisbatan, mahsulotlarni ishlab-chiqarish jarayonida kengroq doirasidir. Uning ob'ekti, hozirgi paytgacha yig'ilgan metodlar bo'yicha ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar kiradi.

Badiiy sifat – mahsulotning inter'eri vash u kabilar tashqi ko'rinishida, afzalliklari, shakl va elementlar o'lchamlarining o'zaro uyg'unligi, mutanosibligini, ritmik tuzilishi, fakturasini, rang va boshqa kompozitsion xarakteristikalarini aniqlaydi. Badiiy sifat asosiy ko'rsatkichlaridan biri, odam uchun xizmat qiladigan predmet muhitining organik elementi sifatida, barcha xarakteristik shakllarni, mahsulotning asosiy g'oya echimiga bo'ysundirishdir.

Badiiy uslub (stil) – badiiy ijod doirasiga mansub bo'lib, mavjud bo'lgan qator umumiy tomonlarga ega me'morchilikda, san'at asarlarida, dizaynda tarixiy bosqichning u yoki bu davrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy uslub ko'pincha buyumlarning me'morchilik va badiiy asarlarida kompozitsion qurilishida namoyish etiladi.

Dekor (lotincha «dekor» so'zidan – bezayman, ma'nosini bildiradi) – bezak elementlari va mahsulot bezagini to'plami. Dekorning asosiy ko'rinishlari: ornamentika, tasviriy va arxitektura motivlari, bezakli qoplami. Rivojlangan dekor, dekorativ – amaliy san'at mahsuloti uchun xarakterlidir, ayniqsa o'tmishda, uning shakliga atayin bezatish uchun kiritilgan element (detal)lar ko'rinishida tez-tez chiqib turgan. Dekor xarakteri, bironta ustani buyumlarning go'zallik mohiyatini, davr tasavvurlari orqali aniqlanadi.

Dekorativlik – shakl ta'sirchanligi shartlaridan biri, mahsulot hususiyati, uning shakl va siluet konfiguratsiya hosiyatlari, hamda materialning rangi, faktura va teksturasi bilan bog'liqdir. Ko'pincha dekarativlikni dekor elementlarining qo'llanilishi, masalan ornamentika bilan bog'lashadi. Lekan bu vaziyatda dekorativlik emas, balki mahsulot dekarativligi deyilsa, to'g'ri aytilgan bo'ladi. Aslida dekorativlik barcha dekorlardan mahrum bo'lgan ko'pgina predmetlarda, masalan: radiopryomnik, avtomobillar, metallning ustki qoplami, kristallar, o'simliklar bargi va boshqa narsalarda mavjuddir.

Mahsulotning dekorativligi, shaklning tartibga solinishi va mantiqiy konstruktivligi, ritmi, rangi, mutanosibligi, faktura vash u kabilarning tashkil etilishiga bog'liqdir.

Dizayn (inglizcha «design» so'zidan – chizma, rasm, loyiha ma'nosini bildiradi).

1) badiiy konstruksiyalash;

2) mahsus faoliyat sohasi, odamlarning hayotiy shart-sharoitlari uchun atroflicha bajarilgan loyiha va ilmiy-tashkiliy ishlanmasidan iborat.

Disgarmoniya (yunoncha «harmonia» so'zidan – garmoniya, uyg'unlik, «dis» - old qo'shimcha bo'lib, inkor etish ma'nosini anglatadi) – muvofiqlashmaganlik, shaklg barcha va alohida bo'lgan xususiyatlari orasidagi qarama-qarshilik, masalan: mahsulotning ritmik tuzilmasi bilan uning rang echimi

orasidagi ziddiyat. Shaklda disgarmoniyaning paydo bo'lishi, uning badiiy sifatini pasayishiga olib boradi.

Inter'er (fransuzcha «inteieur» so'zidan – ichki ma'nosini bildiradi) – binoning ichki muhitining, funksional – estetik munosabatda, nisbatan yopilgan va tashkil etilganligidir. Inter'er xona to'siq sirtlari (devor, ship, pol) va uning barcha jihozlash va bezatish vositalari to'plamidan tashkil topadi.

Kompaktlik (lotincha «compactus» so'zidan – zich, g'uj, yig'ilganlik ma'nosini bildiradi) – shakl elementlarining joylashuvida maksimal zichligi. Kompaktlik darajasidan, mahsulotning quyilganligi aniqlanadi.

Kompleks loyihalash – qator mahsulotlarning loyihalaniishi, odamning ish faoliyatini muayyan jarayonidagi talablarni to'liq ta'minlash; masalan, oshxona uchun jihozlar, maktab uchun mebel va hk. Kompleks loyihalashning maqsadi, odamlar uchun iloji boricha dam olishda, uyda, ishxonalarda qulaylikni, uyg'unlikni va badiiy muhitni yaratishdir.

Kompozitsiya (lotincha «compositio» so'zidan – o'ylab chiqaraman, tuzaman, yarataman ma'nosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga hizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning muvofiqligi.

Komponovka (lotinyaa «compono» so'zidan – tuzaman ma'nosini anglatadi) – turli elementlarning o'zaro mos qilib joylashtirishning qidiriv jarayoni.

Komfort («copfort» - inglizcha so'z bo'lib) odamning ma'lum bir narsa yoki ba'zi buyumlar to'plamidan oladigan barcha qulayliklar yig'indisidir. Mahsulotlar qulaylikning talabiga to'liq javob bersa, ular huzur-halovatli hisoblanadi. Bunday qulayliklarning yo'qligi esa, ma'lum ish jarayoni muhitida diskomfortni yuzaga keltiradi.

Konstruksiya («constructio» lotincha so'z bo'lib – quraman ma'nosini anglatadi) mahsulot elementlarining o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi. Konstruksiyaning hosiyati, asosan mahsulot elementlarining o'zaro bog'lanishida va o'zaro joylashuvida aniqlanadi.

Konstruksiya tipologiyasi – mahsulot elementlarining o'zaro bog'liqligini, konstruktiv klassifikatsiya tiplaridagi farqlari.

Konstruksiya klassifikatsiyasining asoslariga:

1) elementlarning bog'lanish tipii (ajralmas, ajraladigan; yig'iladigan va bo'linadigan);

2) elementlarning o'zaro munosabat tipii (turg'un; kinetik);

3) ularning ulanish sxemasi va usuli; (yahlit; karkasli; jildli; to'plamli);

4) ma'lum mahsulotning boshqa buyumlar bilan bog'lanish konstruksiya tipii (avtomnom; bloklanadigan);

5) funksional holatning tipii (statsionar; safarbar; ichcham);

6) konstruksiyaning asosiy va asosiy bo'lmagan elementlarini o'zaro munosabat tipii (ochiq; yopiq; yarim ochiq) va h.k..

Mahsulotlarning assortimenti (fransuzcha so'z bo'lib «assortiment») – ko'p mahsulotlarning turlicha modellarining bir muhitda tadbiiq etilishi, jihozlarning bir maqsad yoki turdagi to'plami ma'nosini anglatadi. Masalan, maishiy yo'nalishda, turar joyda oshxonani jihozlash uchun mahsulot assortimenti, oshxona uchun idish-tavoqlar assortiment iva boshqalar. Assortimenti, bir vaqtning ichida ishlab chiqarilgan modellargina tashkil etishi mumkin.

Mahsulotlar kompleksi – turli funksional yo'nalishdagi mahsulotlar to'plami, odamning muayyan ish jarayonida vositalarning umumiy sistemasini shakllantiradi.

Mahsulotning sifati – sanoat mahsulotlarini o'lchov qiymati, ularning hususiyatlarini baholash nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, barcha ko'rsatilayotgan talablarga muvofiq, hamda zamonaviy texnologiyaning yuqori ko'rsatkichlari bilan ularning ishlab chiqarish texnologiyasi darajasining muvofiqligi.

Mahsulotning sifatini baholashning asosiy aspektlari – bu ularning foydali bo'lishi, texnik va texnologik mukammalligi, ergonomik talablarga javob berishi, tejankorli bo'lishi, ishlatishda qulayligi, badiiy sifatining estetik qimmatligidir.

Mahsulotning foydali bo'lishi – jamiyatning va odamlarning mahsulotni ishlab chiqarishda, hamda iste'mol qilinish qiziqishlari nuqtai nazaridan kelib chiqadigan zarurat darajasi. Mahsulot jamiyatning qiziqishlariga javob bera olishi va jamiyat talabiga muvofiq, uning foydali ekanligi aniqlanadi.

Moda (lotinyaa so'z bo'lib, o'lchov, shakl, uslub ma'nosini anglatadi) – zamonaviy talabga javob bera oladigan va odamlarning aynan shu narsalarga ega bo'lish intilishiga ko'ra, sanoat mahsulotlari va boshqa buyumlarning ishlatilishida namoyon bo'ladi. Odatda, buyumning yuqori sifati bilan ajralib turishi, texnik jihatdan yangiligi yoki boshqa yorqin ifodalaydigan hosiyatlari bilan ajralib turishi ifodalanadi, masalan, ko'rinishining ajoyibligi, yuqori chidamligi, ihchamligi, qulayligi va hk..

Nufuzli (prestij) iste'mol qilish («presstij» - fransuzcha so'z «presnige» - qadr-qimmat ma'nosini anglatadi) – bu buyumlarning shunday ishlatilishi-ki, unda iste'molchi, shu orqali o'zining faravonligini, madaniyatini, odamlarning qaysi tabaqasiga mansub ekanligini namoyish etadi.

Ornamentika (lotincha so'z «ornamentum») - ziynatlash, zeb berish, bezatish ma'nosini bildiradi) – dekorning xilma-xilligi, buyum, bino, kitoblarni va hk. bezash elementlari yig'indisining, har xil tabiiy shakllar stilida ishlov berishdir, ayniqsa katta qismi o'simliklardan tashkil topgan, masalan: barglar, gullar, mevalar va shu kabilardir. Tabiiy timsollardan xoli bo'lgan ornamentika ham g'oyat tarqalgan, ya'ni

asosi geometrik naqshlardan iboratdir. Ornamentika turli usullarda qo'llaniladi: naqqoshlik, gravirovka, o'ymakorlik, haykaltaroshlik, kashtachilik, applikatsiya, tikuvchilik va hk.. Ornamentika milliy hislatga egadir. U juda ko'p narsalarda ishlatiladi: kiyim-kechak, turli anjomlarda, mebel, zargarlik buyumlarida, hamda inter'erda va shu kabilarda ishlatiladi.

Predmet muhiti – mahsulotlarning ma'lum shaklda, birgalikda tashkil etilishi.

Sanoat mahsuloti – mahsulotning sanoat usulida ishlab chiqarish, ya'ni mashina texnikasidan foydalanib va shunga binoan, birqancha sondagi o'hshash nushalarning ishlab chiqarilishi tushuniladi.

Sanoat mahsulotlarida shakl tuzilishi – badiiy loyihalashning izlanish jarayonida, mahsulotlar shakl birligi va texnik estetika talablari asosida tarkib topishidir. Sanoat mahsulotlarining shakl tuzilish, asosiy qonuniyatlarga; shakl mahsulotning xarakteristik tarkibiga muvofiqligi; shakl konstruksiya va materiallarga bog'liqligi va boshqalar.

Stayling (inglizcha so'z «styling») – badiiy loyihalash yo'nalishidir. Uning maqsadi xaridorlarni mahsulotlarga jalb qilish. Bu mahsulot tashqi ko'rinishining ta'sirchanligi, ifodaviyligi, shaklning ko'zga tez ko'rinishi va bezatilishi orqali o'ziga jalb etishidir. Stayling uchun mahsulotlarni o'tmishning uyg'onish davri, barokko, klassitsizm va shu kabilar uslubida ishlash xarakterlidir.

Tashqi ko'rinish – bunda, buyumning shakli idrok etish orqali tomosha qilinadi. Shakl elementlari buyumni ishlatish jarayonida idrok etish ham buyumning tashqi ko'rinishiga kiradi. Mahsulotning idrok etilishida, unga estetik baho berilishi, tashqi ko'rinish uchun yagona manbaadir.

Texnik estetika – ilmiy soha bo'lib, predmet muhitini shakllanishi va rivojlanishi, odamlarning ish faoliyati jarayonida predmetli sharoit qonuniyatlarini o'rganadi. Texnik estetikani o'rganish spetsifik predmeti – bu odamlarning biologik va ijtimoiy mavjudod sifatida predmetli muhit bilan o'zaro munosabatidir.

Foydali effekt – mahsulotlarning to'g'ridan-to'g'ri o'z o'rnida ishlatishning natijasidir. Mahsulotning ishlatishda foydali effektning katta-kichikligi, bir qator talablarga amal qiladi: mahsulotning texnik mukammallik darajasi; antropometrik o'lchovlarga munosibligi; ekspluatatsiya muhitida, uning konstruksiya va shaklning o'zaro mosligi va hk.. Shunday qilib, foydali effekt mahsulot sifatini belgilashida asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Foydalanish qulayligi – mahsulotni o'zining joyida oddiy, havfsiz va shu kabi ishlatilishi tushuniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni transportirovka qilish, saqlash, yig'ishtirish, ta'mirlash emas, uni faqatgina ishlatish, foydalanish jarayonida qo'llaniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni qurilishi va shakl orqali

ta'minlanishi, ularning antropometriya, ergonomika talablariga hamda ekspluatatsiyaning konkret sharoitda mutanosibliqidir.

Shakl – mahsulotning muhitga mos qurilmasi, ya'ni nuqta, chiziq, qirra, sirt, burchak, shakl, hajm va boshqalarning aniq o'lchamga ega bo'lishidir.

Sanoat mahsulotlarida shaklning umumiy talablaridan biri barcha elementlarning kompozitsion qonuniyatlar asosida muvofiqligi.

Shaklning ifodaviyligi – mahsulotning badiiy ko'rsatkichlaridan biri, bunda buyumning tashqi ko'rinishi va tuzilishini o'zaro munosibligi, maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Bundan tashqari, odamning emotsional kayfiyatiga ta'sir etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mahsulotning bunday ta'sir etish hususiyatlaridan biri – uning dekorativ echimini estetik fahimlanishidir.

Ergonomika - (yunoncha so'z bo'lib, «ergon» - ish, «nomos» - qonun degani) ilmiy-nazariy va ilmiy-eksperemental soha bo'lib, odamning o'zgarib turadigan muhitda, ma'lum ta'sirlanishini talab etuvchi har-xil jihozlar va ish faoliyati muhitida vositalarning odamga ta'sir qiladigan psixofiziologik faktorlarini o'rganadi. Ergonomikaning nazarga oladigan va o'rganuvchi asosiy faktorlariga har xil qo'zg'atuvchilarga odamning munosabati (reaksiyasi), ya'ni optik, tovushli, haroratli va hk.. kiradi. Shu munosabat bilan, ergonomika odamning fiziologiya, psixofiziologiya bilimlariga tayanadi va loyhalanayotgan ob'ektlar shakliga birqancha talablarni aniqlab beradi.

Estetik qimmati – ma'lum mahsulot yoki predmetli muhitining odamlar estetik qarashlariga muvofiqligi. Estetik baholanayotgan ob'ektni, uning barcha hususiyatlarini umumiyliigi va ular orasidagi har xil bog'lanishlarning paydo bo'lishi, birinchi tomondan odam, hamda ikkinchi tomondan ijtimoiy muhitini xarakterlaydi.

Umuman olganda, badiiy sifat odatda, mahsulotning estetik ahamiyati shartlaridan biri bo'lib hizmat qiladi.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mipziyoyev SH.M. Byyuk kelajagimizni mapd va olijanob xalqimiz bilan bipga qypamiz. – T.: O'zbekictan, 2017. – 488 b.
2. Mipziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy taptib-intizom va shaxciy javobgaplik – hap bip pahbap faoliyatining kyndalik qoidaci bo'lishi kepak. – T.: O'zbekictan, 2017. – 104 b.
3. Mipziyoyev SH.M. Epkin va fapovon, demokpatik O'zbekictan davlatini bipgalikda bappo etamiz. – T.: O'zbekictan, 2016. – 56 b.
4. “Ta'lim to'g'picida”gi O'zbekictan Pecpyblikacining qonyni. Qonyn hyjatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.
5. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2017 yil 16 avgyctdagi “O'zbekictan Badiiy akademiyci faoliyatini yanada takomillashtipish va pivojlantipish chopatadbiplapi to'g'picida”gi PQ-3219-con qapopi. – T.: O'zbekictan Pecpyblikaci qonyn hyjatlapi to'plami, 2017 yil 28 avgyct, 34-con, 876-modda.
6. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2018 yil 25 yanvabdagi “Umymiy o'pta, o'pta maxcyc va kacb-hynap ta'limi tizimini tybdan takomillashtipish chopatadbiplapi to'g'picida”gi PF-5313–con Fapmoni. – T.: O'zbekictan Pecpyblikaci qonyn hyjatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-con.
7. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2020 yil 21 appeldagi «Tacvipy va amaliy can'at cohaci camapadoplugini yanada oshipishga doip chopatadbiplapi to'g'picida»gi PQ-4688-con qapopi. – T.: Qonyn hyjatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 22.04.2020 y., 07/20/4688/0475-con.
8. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 4-5-son, 98-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 28-29-son, 262-modda).
9. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
10. Abdyqodipov A.A, Papdayev A.X. Ta'lim japayonini texnologiyalashtipish nazariyasi va metodologiyaci. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 104 b.
11. Abdyllyayev N.A. Can'at tapixi. I tom. –T.: O'qityvchi, 1987. – 352 b.
12. Abdyllyayev N.A. Can'at tapixi. II tom. – T.: Can'at, 2001. – 192 b.
13. Akilova K.B. Napodnoye dekopativno-ppikladnoye ickycctvo Uzbekictana XX veka [ppoblemleni pazvitiya]: Avtopefepat dicceptatsii doktopa ickycctvovedeniY. NII ickycctvoznaniY. – T.: 2002. – 57 b.
14. Amipgazin K.J., Udalov C.P. Fopmipovaniye kompetentnoctey v ppotsece obycheniya dekopativno-ppikladnomy ickycctvy // Omckiy naychniy vectnik. 2012.

№2 (106). – C.223-225.

15. Baymetov B., Alimova G. Maxsus rasm, o'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.

16. Bulatov S.S., Gulyamov K.M. Amaliy san'at. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 542 b.

17. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Ikromov M.H. Vektor grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2021. – 160 b.

18. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Djurayev D.D. Rastr grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA "Xalq nashriyoti", 2022. – 160 b.

19. Gulyamov K.M. Improving System of Future Applied Art Teachers Training based on Competence Approach // Eastern European Scientific Journal jypnali. – Gepmaniya, 2018. – № 6. – P. 83-88.

20. Gulyamov K.M. Modern educational technologies for the formation of professional competence of future applied art teachers // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – India, Vol. 10, July 2020. – P. 678-685.

21. Qodirxo'jayev P. Badiiy bezak san'ati. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.

22. Yo'ldoshev H., Bulatov S. Ustoz va shogird odobi. – T.: Ozbekiston, 2005. – 240 b.

23. Bylatov C.C. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.

24. Bylatov C.C., Gylyamov K.M. Amaliy san'at Elektpon daplik. №DGU04551 raqamli gyvohnoma. 21.04.2017.

25. Bositxonov Z. Xandasiy naqsh (girix)larning yechimlari. – T.: Ochiq jamiyati Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek Vakolatnomasi, 2002. – 88 b.

26. G'oziyev V., Jabbopov U. Faoliyat va xylq atvop mativatsiyaci. – T.: 2003.

27. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davplapi psixologiyaci): Ped.inctitytlapi va ynivepcitetlapi ychyn o'qyv qo'llanma. – T.: O'qityvchi, 1994. – 224 b.

28. Gylyamov K.M. Dekopativno-ppikladnoye ickycctva Uzbekictana: glybokiye tpaditsii i pazvitiye yzbekckoy shkoli // Naychniy fopym: Filologiya, ickycctvovedeniye i kyltypologiya: sb. ct. po matepialam XIX mejdynap. naych.-ppakt. konf. – № 8(19). – M.: Izd. «MSNO», 2018. –C. 29-34.

29. Gylyamov K.M. Kacb-hynap kollejlapi xalq amaliy san'atini o'qitish metodikaci (naqqoshlik san'ati micolida). Pedagogika fanlapi nomzodi dicceptatsiyaci. – T.: TDPU. 2012. – 140 b.

30. Gylyamov K.M. Komponenti pprofessionalnoy kompetentnosti bydyshego ychitelya ppikladnogo ickycctva // International scientific journal «Global science and innovations 2020: Central asia» Nur-sultan, Kazakhstan, feb-march 2020, – C.113-117.

31. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy san'at

- o'qityvchilapini kacbiv faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish. MonogpafiY. – T.: TO'YTEPA PRINT, 2020. – 156 b.
32. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy can'at o'qityvchilapini kacbiv faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system: materials of the X international scientific conference on February 20–21, 2020. – Prague: Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2020. – P.54-57.
33. Gylyamov K.M. Pedagogicheckiye ocnovi vnedpeniya innovatsionnix texnologiy v ppepodavaniye napodnogo dekopativno-ppikladnogo ickycctva Uzbekictana // I International scientific specialized conference «International scientific review of the problems of pedagogy and psychology». – Boston. USA, 2018. – C. 20-23.
34. Gylyamov K.M., Tyxtamatov X.P. Amaliy can'at. Elektpon o'qyv qo'llanma. №DGU 03070. 26.02.2015.
35. Gulyamov K.M. Primeneniye sovremennix trebovaniy v prepodavanii rospisi v professionalnom kolledje // Molodoy uchyoniyy. – Chita, 2011. – № 6 (29), Tom II, – B. 144–145.
36. Djypayev P.H. Ta'limda intepfaol texnologiyalap. – T.:2010. – 87b.
37. Ishmyxammedov P., Abdyqodipov A., Papdayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalap (ta'lim myaccacalapi pedagog-o'qityvchilapi ychyn amaliy tavciyalap). – T.: Icte'dod, 2008. – 180 b
38. Karpova S.V. Reklamnoye delo. – M.: Finansi i statistika, 2006.
39. Karxu A.A. Shrift Obyom-prostranstvo. – M.: Panorama. 1990. – 32s.
40. Kurushin V.D. Dizayn i reklama. – M.: DMK Press, 2006.
41. Qocimov Q. Naqqoshlik. – T.: O'qityvchi, 1990. – 160 b.
42. Lusiy S.A. Izuchayem Photoshop. – SPb.: Piter, 2004. – 441 s.
43. Mironov D.F. Corel DRAW 12. – SPb.: Piter, 2004. – 442 s.
44. Nabiyev M. Rangshunoslik.-Toshkent, O'qituvchi, 1996.
45. Nozilov D.A. O'rta Osiyo dizayni tarixidan. -T.: O'zbekiston, 1998.
46. Petrov M.N., Molchanov V.P. Kompyuternaya grafika. – SPb.: Piter, 2003.
47. Rahmonov I., Ashirboyev A. Geometrik chizmachilik shriftlar. – T.: «Noshir» nashriyoti, 2009.
48. Rixsiboyev T. «Kompyuter grafikasi», – T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi” nashriyoti, 2006.
49. Cayidaxmedov N.C., Indiaminov N.N. Pedagogik mahopat va pedagogik texnologiy. Fan va texnologiya, – T.: 2014. – 336 b.
50. Sotiboldiyev Z.SH. Dizayn asoslari. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
51. O'zbek tilining izohli lyg'ati. – T.: O'zbekicton milliy ensiklopediyaci. Davlat ilmiy nashpiyoti, 2006. – 690 b.

52. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2008. T.8. – 704 b.
53. Faxpetdinova D.A. Dekopativno-ppikladnoye ickycctvo Uzbekictana. – T.: Izdatelectva litepatypi i ickycctova im.Gafypa Gylyama, 1972. – 64c.
54. Xvopoctov A.C. Cictema ppoфессиональной подготовки студентов xydojectvenno-гpafичeckix фakылтетов к пpoyekтной deyatelnocти на базе компьютерных технологий: для наппавления подготовки “Ickycctvo интепера” и “Dizayн cпeди”. Дicceptaтcия на coickаниe yчeной cтeпени доктоpa педагогичeckих наук. – M.: 2013. – 483 c.
55. Xolmyanskiy L.M., Shchipanov A.S. Dizayн. – M.: Prosvesheniye, 1985. O‘zbekcha tarjima. O‘qituvchi, 1991.
56. Xoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 104 b.
57. Hacanov P. Amaliy bezak can’ati mashg‘yotlapi metodikasi. – T.: O‘zPFITI, 2003. – 72 b.
58. Hakimov A.A. Covpemennoye dekopativnoye ickycctvo pecpyblik Cпeдней Azii. – T.: Fan, 1992. – 190 b. il.
59. Yuldashev U.Y. Informatika. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 104 b.

Internet saytlar:

60. www.artacademu.spd.ru
61. www.edu.uz.
62. www.lex.uz – O‘zbekiston Pecpyblikaci Qonyn hyjjatlapi ma’lymotlapi milliy bazaci.
63. www.pedagog.uz.

www.Ziyonet.uz.